

## "YOSH XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FAOLLIGINI TA’MINLASH"

Toshkent viloyat Nurafshon shahar

26-maktab boshlangich sinf o'qituvchisi.

**Rasulova Muattar Xudayberdiyevna**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning dars jarayonidagi faolligini oshirish yo‘llari yoritilgan. O‘quvchilarining e’tibor, xotira, qiziqish va emotsiyal rivojlanish darajasi dars metodikasini tanlashda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif darslarni tashkil etishda interfaol metodlar, o‘yin elementlari, jismoniy faollikni rag‘batlantiruvchi mashqlar va individual yondashuvdan foydalanish samaradorligini asoslab beradi. Tadqiqotda o‘quvchilarni darsga jalb etish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ijtimoiy faolligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan. Maqola boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun metodik qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so’zlar:** boshlang‘ich ta’lim, yosh xususiyatlari, o‘quvchi faolligi, interfaol metodlar, o‘yinli mashg‘ulotlar, didaktik materiallar, motivatsiya, individual yondashuv, dars samaradorligi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются пути повышения активности учащихся младших классов на уроках с учетом их возрастных психологических и физиологических особенностей. Уровень внимания, памяти, интереса и эмоционального развития учащихся считаются важными факторами при выборе методов обучения. Автор обосновывает эффективность использования интерактивных методов, игровых элементов, упражнений, стимулирующих двигательную активность, индивидуального подхода в организации занятий. В исследовании также даются практические рекомендации по вовлечению учащихся в

учебный процесс, развитию их независимого мышления и повышению их социальной активности. Статья может служить методическим пособием для системы начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, возрастные особенности, активность учащихся, интерактивные методы, игровая деятельность, дидактические материалы, мотивация, индивидуальный подход, эффективность урока.

**Annotation:** This article discusses ways to increase the activity of primary school students in the lesson process, taking into account their young psychological and physiological characteristics. The level of attention, memory, interest and emotional development of students is considered an important factor in choosing teaching methods. The author substantiates the effectiveness of using interactive methods, game elements, exercises that stimulate physical activity and an individual approach in organizing lessons. The study also provides practical recommendations for involving students in the lesson, developing their independent thinking and strengthening their social activity. The article can serve as a methodological guide for the primary education system.

**Key words:** primary education, age characteristics, student activity, interactive methods, game-based activities, didactic materials, motivation, individual approach, lesson effectiveness.

**Kirish:** Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ularni faol ishtirokchi sifatida darsga jalg etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining keyingi bilim olish faoliyatiga poydevor bo‘lib xizmat qilgani sababli, bu davrda beriladigan ta’limning sifati, shakllari va uslublari alohida e’tiborni talab etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatidan hali hayotiy tajribasi kam, emotsiyal jihatdan ta’sirchan, harakatchan va qiziquvchan bo‘ladi. Shuning uchun ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyatga asoslangan, o‘yin elementlari bilan boyitilgan va

o‘quvchini markazga qo‘ygan metodlar ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada aynan yosh xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi faolligini oshirishga qaratilgan metodlar, vositalar va amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi. Maqsad – o‘quvchining tabiiy ehtiyojlari va individual rivojlanish bosqichlarini hisobga olib, ularni faol va samarali o‘qish muhitiga jalgan qilish imkoniyatlarini aniqlashdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar:** Vygotskiy, L.S. (2005). *Pedagogik psixologiya* va Piaget, J. (2004). *Bolalar psixologiyasi* asarlarida boshlang‘ich ta’limda bolalarning rivojlanishi va o‘qish jarayonida yuzaga keladigan psixologik xususiyatlar haqida muhim nazariy tushunchalar keltirilgan. Vygotskiy, L.S. o‘zining "Pedagogik psixologiya" asarida bolalar rivojlanishida ijtimoiy va madaniy omillarning katta rol o‘ynashini ta’kidlagan. Uning "yaqin rivojlanish zonasasi" (ZPD) konsepsiysi, o‘quvchilarning mustaqil ishlay olishlari uchun kerakli yordamni o‘qituvchilardan va tengdoshlaridan olishlarini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirishda samarali bo‘ladi, chunki o‘quvchilar to‘g‘ri yordam bilan o‘z darajasidan yuqori bo‘lgan vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladilar. Bu esa o‘qituvchiga faollikni oshirish va bolalarni rivojlantirish uchun yordamlashish imkoniyatini beradi. Piaget, J. esa o‘zining "Bolalar psixologiyasi" asarida bolalar rivojlanishining kognitiv bosqichlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Piagetning nazariyasiga ko‘ra, bolalar 7-11 yosh oralig‘ida "konkret operatsiyalar" bosqichiga o‘tadilar, ya’ni ular real dunyo ob’ektlari va hodisalarini tahlil qilishda yuqori darajadagi mantiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzuni konkret shaklda va amaliyotda ko‘rishga, tajriba qilishga ko‘proq qiziqadilar. Piagetning nazariyasiga ta’lim jarayonida o‘yinli metodlar va tajriba asosidagi yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Bu asarlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faolligini oshirishda pedagogik jarayonni ijtimoiy va kognitiv rivojlanish nazariyalari bilan bog‘lashning zarurligini tushuntiradi. Vygotskiy va Piagetning fikrlaridan kelib chiqqan holda, darslarni o‘quvchilarni faollashtiradigan va ularning rivojlanish darajasiga moslashtirilgan metodlar

asosida qurish kerakligi ta'kidlanadi. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faollikka rag'batlantiradi.

Bu asarlar o'quvchilarni darsga jalb qilishda qanday metodlar va yondashuvlarni qo'llash zarurligini aniqlashga yordam beradi. Bir asarda zamonaviy ta'lim metodlarini amaliyotda qo'llashning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. U, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni faollashtirishda innovatsion metodlarning samarali bo'lishini ta'kidlaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z faoliyatini boshqarishga undovchi metodlar, masalan, o'yinli texnologiyalar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, jamoaviy ishlarni tashkil etish, o'quvchilarni o'z fikrini erkin ifoda etishga rag'batlantiradi. G'ulomova "o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun dars jarayonini interfaol tarzda tashkil etish zarurligini, bunda ularning shaxsiy qiziqishlariga asoslangan yondashuvlarni qo'llashning muhimligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar bolalar yoshiga mos ravishda ularning diqqatini to'plash va faolligini oshirishga xizmat qiladi."<sup>1</sup> Asarida ta'lim jarayonida amaliy faoliyat va tajriba asosida o'rghanishni ta'kidlaydi. Dewey ta'limni faqat bilim olish jarayoni deb emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi va faol ishtiroki sifatida ko'rishni tavsiya qiladi. U, o'quvchilarning faolligini oshirishda darslarni real hayotga moslashtirish, amaliy faoliyatni tashkil etish va o'quvchilarga o'z tajribalarini olish imkonini berish zarurligini ta'kidlaydi. Deweyning nazariyasi bo'yicha, o'quvchilar o'z tajribasidan o'rghanadilar va bu ular uchun nafaqat bilim, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu yondashuv darsda faollikni oshirish uchun samarali metodik vosita hisoblanadi.<sup>2</sup>

**Mavzuning dolzarbliji:** Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni faollikka undash va mustaqil fikrlaydigan inson sifatida shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quv faoliyatining eng muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan munosabat, darsga qiziqish, o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanadi.

<sup>1</sup> G'ulomova, G. (2023). *Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar* va Dewey, J. (2009).

<sup>2</sup> Dewey, J. (2009). Ta'lim nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Ma'naviyat.

Zamonaviy pedagogik qarashlar shuni ko'rsatmoqdaki, dars jarayonida o'quvchilarning yoshga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olmasdan turib, ularning darsdagi faolligini ta'minlash qiyin. Bolalar tabiatan harakatchan, tez charchaydigan, e'tibori oson chalg'iydigan bo'lganligi sababli, dars metodikasi ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchidan puxta pedagogik mahorat, zamonaviy metodlardan foydalanish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda shu asosda ularning darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish hozirgi ta'lim jarayonining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Nazariy asoslar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlariga asoslangan pedagogik yondashuv muhim o'rinni tutadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida tan olingan nazariyalar shuni ko'rsatadiki, 6–10 yosh oralig'idagi bolalar uchun bilim olish jarayoni ko'proq amaliy faoliyat, o'yin va emotsiyonal rag'bat bilan uyg'unlashgan holda samarali kechadi.

Rossiyalik mashhur psixolog L.S. Vygotskiy o'zining "yaqin rivojlanish zonası" haqidagi nazariyasida bolani mustaqil bajara olmaydigan, ammo katta yoki tengdoshlar yordami bilan bajara oladigan faoliyatga jalb etish uning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Bu tamoyilga ko'ra, darsda o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka undash, faol muloqotga kirishish va rag'batlantirish ularning rivojlanish sur'atini tezlashtiradi.

Shuningdek, J. Piagening kognitiv rivojlanish bosqichlari nazariyasida boshlang'ich maktab davri (7–11 yosh) "konkret operatsiyalar bosqichi" deb ataladi. Bu bosqichda bolalar real narsalar va hodisalar ustida fikr yuritish, taqqoslash, guruhlash, sabab-oqibat bog'liqlarini aniqlashga qodir bo'ladi. Shu sababli dars jarayonida ko'rgazmali vositalar, o'yinli topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar keng qo'llanishi lozim.

Yana bir muhim jihat – bu motivatsiya nazariyalari bilan bog'liq. A. Maslou, D. MakKlelland kabi olimlar ta'kidlaganidek, o'quvchining ichki ehtiyoji va qiziqishi rag'batlantirilsa, u o'z faoliyatini zavq bilan bajaradi. Boshlang'ich sinfda darslar qiziqarli

va o‘quvchiga yaqin bo‘lishi, u o‘zini muvaffaqiyatli his qiladigan vaziyatlar yaratilishi lozim.

Shu asosda, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchining darsdagi ishtirokini faollashtiradi, balki uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol metodlar, o‘yin texnikalari, differensial yondashuv, refleksiya va baholash vositalari – ana shu nazariy qarashlarning amaliy ifodasıdir.

**Tahlil va natijalar:** Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi ishtiroki, faollik darajasi va ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Pedagogik kuzatuvlari, suhbatlar va dars tahlillari asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

Yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan darslar – ya’ni o‘yin elementlari, ko‘rgazmalilik, harakatli mashg‘ulotlar bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini uzoqroq saqlab turishiga va ularning darsda faol ishtirok etishiga olib keldi. An’anaviy va interfaol metodlar solishtirildi. An’anaviy (ma’ruza, og‘zaki tushuntirish) usullarda o‘quvchilar ko‘proq tinglovchi rolida bo‘lib qolgan bo‘lsa, interfaol metodlar qo‘llangan darslarda ular faol savol-javob, guruhli ish, muammoli vaziyatlarni hal qilishda ishtirok etdi. Motivatsiyaning kuchli ta’siri kuzatildi. O‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning yutuqlarini e’tirof etish, qiziqarli topshiriqlar berish natijasida darsga bo‘lgan munosabatlar ijobiy tus oldi. Jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi metodlar, masalan, “harakatli o‘yinlar” yoki “dinamik tanaffuslar”, ayniqsa yosh bolalar uchun e’tibor va faollikni tiklashda juda samarali bo‘ldi. Guruhli va juftlikda ishslash metodikasi o‘quvchilarda hamkorlik madaniyatini, fikrlash faolligini va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. O‘quvchilarning o‘zini baholashi va refleksiya usullaridan foydalanish orqali ular darsda o‘z ishtirokini tahlil qilishga va o‘zini baholashga o‘rgandi, bu esa mas’uliyat hissini kuchaytirdi.

Natijalar shuni ko’rsatadiki, Faollik darajasi interfaol metodlar qo‘llangan darslarda 70–80% gacha oshdi. O‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va savollarga javob berish faolligi 2 baravarga ko‘paydi. Darslarda qatnashmaydigan yoki sust ishtirok etadigan o‘quvchilarda ham ishtirok va motivatsiyada ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

O‘quvchilarning darsga kechikishlari, diqqatning tez chalg‘ishi kabi salbiy holatlar kamaydi.

**Taklif va xulosalar:** O‘tkazilgan tahlillar va nazariy-amaliy kuzatuvalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi hamda takliflar ishlab chiqildi: Xulosalar shuni nazarda tutadiki, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi faolligi ularning yoshga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘quvchilar darsda faol bo‘lishi uchun dars jarayoni o‘yinga asoslangan, harakatli, ko‘rgazmali va hissiy jihatdan qiziqarli bo‘lishi zarur. Faollikni oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘quvchilarning qiziqishlariga mos topshiriqlar tanlash va ularni ijtimoiy faoliyatga jalg‘ish etish muhim omillardan biridir. Interfaol metodlar, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrashi va darsdagi ishtirokini kuchaytiradi.

Takliflar shu nazariyani qamrab oladiki, Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarni loyihalashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini chuqur o‘rganib, ularni hisobga olgan holda metod va vositalarni tanlashi lozim. Har bir darsda o‘quvchilarning e’tiborini faol ushlab turish uchun dinamik pauzalar, o‘yinli elementlar va emotsiyal muhit yaratilishi tavsiya etiladi. Dars davomida o‘quvchilarning fikr bildirishiga, savol berishiga, o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etishiga imkon beruvchi muhit shakllantirish zarur. O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida yosh xususiyatlariga asoslangan ta’lim metodikalariga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich sinflar uchun metodik qo‘llanmalar, dars ishlanmalarini va o‘yinli materiallar bazasini yangilash va boyitish taklif etiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Vygotskiy, L.S. (2005). Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Piaget, J. (2004). Bolalar psixologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Jalolov, J. (2019). Pedagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
4. Mahkamova, D. va boshq. (2021). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Xasanboeva, M.Q. (2020). Yoshga oid psixologiya. Toshkent: Yangi asr avlod.

6. Karimova, Z. (2022). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi faolligini oshirishda o‘yinli metodlardan foydalanish” // Xalq ta’limi, №6, 45–49-betlar.
7. G‘ulomova, G. (2023). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. Samarqand: SamDU nashriyoti.
8. Dewey, J. (2009). Ta’lim nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Ma’naviyat.
9. Abduqodirova, G. (2020). “Faol ta’lim metodlari orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish” // Pedagogik izlanishlar jurnali, №3, 33–37-betlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2021). Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. Toshkent.